



The Symbolism of the Motherland in the Poems of Muhammad Yusuf

Nurmanova Iqbol

University of Information Technologies and Management

2nd year student

Annotation: This article analyzes the unique artistic interpretation of the theme of the Motherland in the works of Muhammad Yusuf. The poet's poems highlight love for the native land, the spiritual world of the people, and the expression of national pride and devotion. The figurative means used to create the image of the Motherland and the poet's stylistic mastery are examined from a scholarly perspective.

Keywords: Image of the Motherland, Muhammad Yusuf's poetry, national spirit, native land, patriotism, artistic mastery, lyrical hero, poetic style, spirituality, Uzbek literature.

Muhammad Yusuf she'rlarida Vatan timsoli

Nurmanova Iqbol Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusining o'ziga xos badiiy talqini tahlil etiladi. Shoir she'rlarida ona yurtga muhabbat, xalqning ma'naviy dunyosi, milliy g'urur va sadoqat tuyg'ularining ifodalanishi yoritiladi. Vatan obrazini yaratishda qo'llangan tasviriy vositalar hamda shoirning uslubiy mahorati ilmiy jihatdan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Vatan obrazi, Muhammad Yusuf she'riyati, milliy ruh, ona zamin, vatanparvarlik tuyg'usi, badiiy mahorat, lirik qahramon, poetik uslub, ma'naviyat, o'zbek adabiyoti.

Аннотация : данной статье анализируется своеобразное художественное осмысление темы Родины в творчестве Мухаммада Юсуфа. В стихотворениях поэта раскрываются любовь к родной земле, духовный мир народа, чувства национальной гордости и преданности. С научной точки зрения рассматриваются художественные средства создания образа Родины и стилистическое мастерство поэта.

Ключевые слова: образ Родины, поэзия Мухаммада Юсуфа, национальный дух, родная земля, патриотизм, художественное мастерство, лирический герой, поэтический стиль, духовность, узбекская литература.

O'zbek adabiyotida Vatan timsoli har doim muhim o'rin egallab kelgan. Ayniqsa Muhammad Yusuf ijodida bu mavzu o'ziga xos badiiy talqin etilgan. Shoir sherlarida Vatan nafaqat muqaddas maskan, balki inson qalbining ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Muhammad Yusuf she'rlarida vatan tushunchasi ko'pincha ona obrazi bilan uyg'unlashadi. Bu orqali shoir vatanga bo'lgan muhabbatini tabiiy va chuqur insoniy tuyg'u sifatida tasvirlaydi. Vatan bu tug'ilgan zamin, bolalik xotiralari, ona allasi va xalqning ruhiy ildizlari bilan bog'liq muqaddas makondir. Shoirning sodda va xalqona tilda bitilgan samimiy she'rlari o'ziga xosligi bilan o'quvchilar qalbida aks-sado beradi.

Jumladan, "O'zbek haqida ballada" she'rida

Qiyosi yo'q uning mehri bir daryo

O'xshasa o'ziga o'xshaydi O'zbek

Boshqa millatlarni bilmadim, ammo

Dunyoda bolam deb yashaydi O'zbek. [1:320]

Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, shoir sodda, samimiy so'zlar orqali O'zbek xalqining o'ziga xos mehri, oilaga sadoqati, iymoni va o'zligiga sodiqligini tarannum etuvchi g'oyatda ta'sirli she'r yaratgan. Bu uslub uning she'rlarini keng kitobxonlar ommasiga yanada yaqinlashtiradi. Shoir ijodida Vatan tushunchasi milliy o'zlik bilan chambarchas bog'liq. U she'rlarida ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira kabi tushunchalarni Vatan timsolida mujassamlashtiradi va har bir inson qalbida yurtga muhabbat, sadoqat, ma'suliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Aytaylik shoirning Vatanim she'rida kamida yuz



yillik hodisalar natijasi va xalqning quvonch-u alami bir necha satrlar orqali, juda
chiroyli talqin qilingan.

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim

Shoir uchun boshqa dunyo qadrsiz u uchun eng muhim narsa Vatan. Birinchi
baytda biroz bepisandlik ohangi bordek tuyulsa-da, lekin aslida bu cheksiz
muhabbat ifodasi. Keyingi baytda esa Vatan butun dunyoga tenglashtiriladi, hatto
undan ustun quyiladi.

O‘zim xoqon, o‘zim sulton
Sen taxtu Sulaymonim

Bu baytda insonning yurtida doim erkin, hur va baxtli hayot kechirishi, vatan
bebaho tengsiz maskan ekanligi mahorat bilan ochib berilgan.

Kim Qashqarni qildi makon
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin Kurdistonda
Boburing Hindistonda.[2:68]

Muhammad Yusuf bu oltinga teng misralar orqali ajdodlarimizning boshqa-
boshqa yurtlarga tarqab ketganligini, Jaloliddin bobomizning Kurdistonda
kurashganligini, Zahiriddin Muhammad Bobur esa bir umr o‘zi tug‘ilgan yurtini
Andijonni sog‘ina turib Hindistonda yashashga majbur bo‘lganligini achinish
bilan xotiralaydi. Muhammad Yusuf she‘rlarida vatanga, yurtga juda ko‘p
murojaat qilgan va uning nechog‘lik qadrli ekanligini bot-bot takrorlagan. Misol
uchun yana bir Vatan she‘rini oladigan bo‘lsak!

O, ota makonim, Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim tushay soyangga.[1:6]

Bunda Vatan ota va onaga o‘xshatilgan. Bu oddiy o‘xshatish emas, balki juda

chuqur ma'no beradi. Ota-tayanch, himoya, kuch. Ona-mehr, muhabbat, bag'rikenglik.

Demakki, Vatan ham insonni himoya qiladi va mehr beradi. "O" undovi bu oddiy so'z emas, balki qalbdan chiqqan hayqiriq. Shoir vatanga bevosita murojaat qilmoqda, bu esa hissiyotni kuchaytiradi.

"Onajon" so'zidagi "jon" qo'shimchasi mehrni kuchaytiradi. Bu yerda oddiy ona emas, balki nihoyatda aziz va suyukli Vatan tasvirlangan. Ikkinchi bayt bu obrazli ifoda. Shoir o'z sadoqatini kuchaytirish uchun jonini fido qilish darajasiga olib chiqadi va "poyim tushay"- bu yerda haqiqiy yiqilish emas bu sadoqat, hurmat va itoatning ramzi. Vatan bilan bevosita suhbat "O'zbekiston"ga insondek murojaat qilinmoqda, bu usul Vatan obrazini jonli va yaqin qilib ko'rsatadi. Vatan inson uchun eng muqaddas va aziz ne'mat, unga sadoqat esa eng oliy burchdir. Vatan har qanday boylikdan ustun. Qadr begona yurtlarning jozibasi, boyligida emas, balki yurakka yaqinlikda. Muhammad Yusufning she'rlarida vatanga muhabbat hissi, shoirning ona yurtdan tuygan mehri singilning, onaning mehridek iliq, u bir aka bo'lib, bir o'g'il bo'lib bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt "o'g'lim" deya unga mushtoq bo'lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqsa, kelgusi padarkushlardan kelajak Ulug'beklarni pana qilib quchgisi keladi.

"Yurtim ado bo'lmas armonlaring" bor she'rida shoirning o'z xalqi dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri sanaladi va bu xalq tarixda misli ko'rilmagan hodisalarni boshdan kechirgan. Xalqimiz barcha sinovlardan omon hamda sharaf bilan chiqdi. Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, yov kelganda o'zini chetga olgan, joni shirinlik qilib shanidan kechgan, hatto do'stlarini sotgan kimsalarni ham afsuski, xalqimiz yoddan chiqarmaydi. Ularning kirdikorlari tufayli yurtning "ado bo'lmas armonlari, toshlarni yig'latgan dostonlari paydo bo'ldi. Muhammad Yusuf o'z asarlarida vatanni faqat geografik makon sifatida emas, balki inson qalbining eng nozik, eng og'riqli va eng muqaddas qatlamlari bilan bog'liq tushuncha sifatida tasvirlaydi. Shoir vatanga muhabbatni balandparvoz shiorlar bilan emas, balki samimiy iztirob, sog'inch va sadoqat orqali ifodalaydi. Shu bois uning satrlarida ichki, ruhiy kurash va fidoiylik hissi kuchli seziladi.

Shoirning Vatan haqidagi she'rlari bu oddiy tuyg'ular ifodasi emas, balki millat ruhining teran va murakkab aksidir. Shoirning so'zlari sodda tuyulsa-da ularning tagida chuqur falsafiy ma'no, tarixiy xotira va ma'naviy mas'uliyat



mujassam. Aytaylik, Vatan bu onaning mehridek iliq, ammo ayriliqda yurakni tilka- pora qiladigan aziz maskan, u insonni ulg'aytiradigan, tarbiyalaydigan va oxir oqibat yana o'z bag'riga chorlaydigan muqaddas manzil. Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she'rlari o'quvchini nafaqat vatanni sevishga, balki vatanning haqiqiy qadrini anglashga, unga munosib farzand bo'lish mas'uliyatini his etishga undaydi. Betakror misralar inson qalbida sukutda yashirinib yotgan vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otib, uni yanada chuqurroq his qilishga va yashashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007-yil. -382 b.
2. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan, Vatanim. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2004 - yil. - 278 b.
3. Muhammad Yusuf. Erka kiyik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995 - yil. -324 b.
4. Muhammad Yusuf. Osmonimga olib ketaman. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1998 - yil. -292 b.
5. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent. 2015 - yil. -307 b.